

## **Yoshlar tashabbusi jamiyat taraqqiyoti yo'lida**

Bugungi sinovli kunlarda ko'makka muhtoj, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishni o'z insoniylik burchi ekanligini his qilib, savobli ishlarni davom ettirayotgan hamyurtlarimiz safi kengaymoqda. Shunday hamyurtlarimizdan hisoblangan bir guruh shijoatli yoshlarimizning xayriya ishlarida faol bo'lib, kam ta'minlangan oilaga yaqindan ko'rsatgan yordamini e'tirof etishimiz joizdir.

2020-yil 29-iyul sanasida O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi, O'zbekiston Liberal Demokratik, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, Adolat sotsial demokratik partiyasi va Milliy tiklanish demokratik partiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Talented Talents in Tourism" onlayn loyihasi aynan pandemiya davrida ko'plab bilimga chanqoq yoshlarimizni e'tiborini tortib kelmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va yoshlarni ushbu sohada birlashtirish bo'lib, O'zbekistonda mavjud bo'limgan Music tourism, Art tourism, Blogging in Tourism va Journalism in Tourism turizm yo'nalishlarini yaratishda o'z hissasini qo'shishdan va loyiha davomida to'plangan mablag'larni xayriya ishlariga safarbar qilishdan iboratdir.

Iyul-avgust oylarida loyiha tashkilotchilari tomonidan bir qator tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, jumladan, "5 Key Tourism Trends: Sustainability for Businesses, Destinations and Consumers" nomli vebinar hamda "Business in Tourism: how to make money and benefits of developing tourism" master klassi ko'plab yoshlarning va mutaxassislarning e'tiboriga sabab bo'ldi. Ushbu tadbirlardan yig'ilgan mablag'larning xayriya ishlariga safarbar qilinishi esa taxsinga loyiqdir.

2020-yilning 15-16 avgust sanalarida bo'lib o'tgan "Business in Tourism: how to make money and benefits of developing tourism" master klassi turizm sohasi vakillari va ushbu sohaga qiziquvchi bir qator yoshlarimizni bir joyga jamladi. Master klass mobaynida qatnashchilar nafaqat mutaxassislar bilimlarini olishdi, balki tengdoshlari bilan fikr almashish va mamlakatimizda turizm sohasida mavjud bo'lgan muammolarga yechimlarini topish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Master klassni tashkil etishda o'z ko'magi va vaqtini ayamagan spikerlar, Toshkent davlat

iqtisodiyot universiteti o'qituvchlari - Shuxratjon Sayfutdinov, Mohinur Nurfayziyeva, Sadafbek Husanboyev, Raxima Yusupova, Fayoza Xalimova, Nargiza Jurayeva va loyiha tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligidan bildiramiz.

Master klassdan yig'ilgan pullar maqsadli ishlarga yo'naltirildi. Toshkent viloyati Chinoz tumanida istiqomat qiluvchi ko'makka muhtoj oila ko'p yillardan beri gaz ta'minotining yaxshimasligi va gaz plitasining yo'qligi sabab nochor hayot kechirib kelmoqda edi. Loyiha tashkilotchilari tomonidan ushbu oilaga yordam ko'rsatish maqsadida gaz plitasi va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilib, yurtimizda yana bitta xayrli ishlarning soni ko'paydi. Albatta, xayrli ishlarni amalga oshirishda aynan yoshlarning tashabbus ko'rsatganligi va ehtiyojmand oilaga bee'tibor bo'limganligidan o'rnak olsa arziydi. Loyiha tashabbuskorlari hisoblangan Farangiz Erkinova, Madinabonu Urinova, Anvar Baxramov, Temur G'oziyev va boshqa tashkilotchilarga kelgusidagi tadbirdorda muvaffaqiyat tilab qolamiz.

**Madinabonu Urinova**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**